

**Paxtachi tumanida kommunal xo‘jaligi sohalarining 2023-2024-yilgi kuz-qish mavsumiga tayyorgarligi to‘g‘risida tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i S.Qilichevning
H I S O B O T I**

Assalomu alaykum

Hurmatli deputatlar va sessiya ishtirokchilari!

Bugungi kunda tuman hududida 46 ta ko‘p qavatli 1043 xonadonli turar joy binolari mavjud bo‘lib, shundan 26 tasi 1970-1980-yillar o‘rtasida qurilgan ikki qavatli uylar tashkil qiladi.

Ushbu ko‘p qavatli uylarni 2023-2024 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo‘yicha qo‘yidagi ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, ko‘p qavatli turar joy binolarida istiqomat qiladigan fuqarolarga tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda kuz qish mavsumini betalofat o‘tkazish maqsadida yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo‘yicha tegishli ma‘lumotlar berib o‘tilib targ‘ibot ishlari olib borildi.

Tumanning Istiqlol mahallasi Istiqlol ko‘chasida joylashgan maishiy chiqindi shaxobchasi qayta ta‘mirlanib, maishiy shahobchani yoritish uchun yangi bir dona tungi yoritgich chirog‘i o‘rnatilib, ko‘p qavatli turar joy binolari oldiga yangi maishiy chiqindi o‘rnalari o‘rnatib berildi.

Ko‘p qavatli turar joy binolari hududidagi maishiy chiqindilar “Mansurbek qo‘rg‘oni” MCHJ tomonidan grafik asosida olib chiqib ketilmoqda.

Ko‘p qavatli uylarning eshiklariga issiqlik saqlash maqsadida prujinalar o‘rnatildi.

Tumanning Istiqlol mahallasi Mirzo Ulug‘bek ko‘chasida joylashgan 15-16-sonli ko‘p qavatli uylar “Boshqaruv servis kompaniyasi” tomonidan markaziy kanalizatsiya tarmog‘iga ulanib, uzluksiz ichimlik suvi bilan ta‘minlash maqsadida toza ichimlik suvi uchun zahira beton hovuz qurildi.

Bundan tashqari ko‘p qavatli uylarni hududini doimiy ravishda obodonlashtirib borish maqsadida har bir hudud tuman Obodonlashtirish boshqarmasi hodimlariga biriktirib berilganligini ma‘lum qilamiz.

Tuman bosh arxitektori



S.Qilichev